

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI
ADABIYOTSHUNOSLIK KAFEDRASI**

**Filologiya fakulteti o'zbek filologiyasi yo'nalishi 448-guruh talabasi
Nurmatova Ra'noning**

BITIRUV – MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: Muqimiyning “Sayohatnoma”sida davr, muhit hamda voqelik
tasviri**

Ilmiy rahbar:

M. Boborahimov,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Farg'ona - 2013

R E J A

K i r i s h

1 BOB. Ijtimoiy –siyosiy hayotning badiiy tasviri

1-fasl. Qo'qon adabiy muhitida satiraning o'rni.

2-fasl. "Sayohatnoma"ning janr xususiyatlari va obrazlari

II BOB. Voqelik va muallif munosabati

1-fasl. Ijtimoiy tiplarning satirik talqinlari.

2-fasl. An'ana va poetik mahorat masalasi.

X u l o s a.

KIRISH

Xalqimizning ko'p asrlik armonlari ushalib, Istiqlolga erishishimiz barobarida ijtimoiy-falsafiy tafakkurimiz, madaniy-adabiy taraqqiyotimiz tarixida beqiyos rol o'ynagan ulug' siymolar nomi va sha'ni o'zining haqiqiy qadr-qimmatini topmoqda. Markaziy Osiyoda mashhur Mavlono Muqimiy tarix sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tib kelayotgan, abadiyatga daxldor ana shunday namoyandalardan biridir.

O'zbek mumtoz adabiyoti tarixida yorqin iz qoldirgan Muqimiy, Furqat, Zavqiy singari qalam sohibalari o'zlarining ko'ngil kechinmalari, rangin tuyg'ulari hamda ijtimoiy hayotga munosabatlarini badiiy ifodalashda o'ziga xos mahorat maktabi yaratganlar. Shuning uchun ham madaniy merosimizni, uning ulug' siymolarining hayot va ijod yo'llarini ham ilmiy ham badiiy talqin etish bugungi kunimizning muhim vazifalaridan biridir.

Endilikda mustaqillik sharofati bilan o'zbek adabiyoti tarixi yangilanayotgan badiiy tafakkur talablari asosida qayta idrok etilmoqda, o'tmishda yaratilgan asarlarning asl mohiyatini ochishga harakat qilinmoqda. Adabiyotshunoslik istiqlolgacha bo'lgan davrlarda badiiy asarlarni asosan ijtimoiy-siyosiy nuqtai nazaridan tekshirishga moslashgan bo'lsa, endi o'sha qoliplarni tark etib, badiiy matnga estetik talablar asosida yondashishga, har qanday xulosani matnning o'zidan keltirib chiqarishga harakat qilmoqda. Natijada ko'plab mumtoz adabiyot namunalarining asl badiiy qiymati, bir qator adiblarning millat estetik tafakkuri taraqqiyotidagi tarixiy o'rni xolisona belgilanayotir.

Shuning uchun ham Vatanimiz mustaqillikka erishgandan so'ng tarix uchun nisbatan qisqa fursat ichida o'tmish adabiyotimiz va tarixiy asarlarimizni o'rganishda to'g'ri va xolis yondashuv ustuvor tekshirish usuliga aylanmoqda. Yurtboshimiz I.A. Karimovning "Asrlar mobaynida xalqimizning yuksak ma'naviyat, adolatparvarlik, ma'rifatsevarlik kabi ezgu fazilatlari Sharq falsafasi va islom dini ta'limoti bilan uzviy ravishda rivojlandi. Va o'z navbatida bu falsafiy-axloqiy ta'limotlar ham xalqimiz dahosidan bahra olib boyib boradi.

Bizning kelajagi buyuk davlatimiz ana shu falsafaga uyg'un holda, Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Bahovaddin Naqshband, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo singari mutafakkir ajdodlarimizning dono fikrlariga uyg'un holda shakllanishi lozim"¹ degan fikri milliy qadriyatlarimizning davr, zamon, istiqlol mezoni asosida tadqiq etishni taqozo etadi. Prezidentimiz nomlarini tilga olgan ulug' ajdodlarimiz safiga o'zbek mumtoz adabiyotini yangi bosqichga ko'targan, lirikaga yangi ruh, yangi mavzular olib kirgan, ijodi bilan o'ziga xos mahorat va tajriba maktabi yaratgan Mavlono Muqimiyni ham qo'shish mumkin. Xalqimizning bu ulug' farzandi o'zining adolatparvarlik va ma'rifiy qarashlari, ilm-fandagi hamda ijtimoiy hayotdagi yangiliklarni badiiy tarannum etishi bilan o'zi mansub bo'lgan muhit doirasidan yuqori ko'tarila olgan. Shoir zamonasining taraqqiyparvar kuchlari o'rtasida haq so'zi va haqiqat uchun kurashishi tufayli oldingi o'rinlarni egallagan.

Qadim Turkistonning uchta xonlikka bo'linib ketishi, feodal tarqoqlik, iqtisodiy zaiflik, ilm-ma'rifat taraqqiyotining sustlashuvi vatanimizni chet el bosqinchilarining xurujlariga duchor qildi. Bir tomondan Chor Rossiyasi bosqinchilari zulmi, ikkinchi tomondan ularning malaylariga aylangan mahalliy amaldorlar jabri xalqni holdan toydirdi. Ana shunday tarixiy sharoitda ham adabiyot va san'at xalq ommasiga ma'naviy dalda berish, uni yorug' kunlarga ruhlantirish vazifasini ado etishdan to'xtab qolmadi. Adabiyotning o'zi ham ijtimoiy-siyosiy hayotning ko'zgusi sifatida taraqqiyotdan to'xtamadi. Janrlarning mazmunan yangilanishi, badiiy adabiyotning xalq hayotiga yaqinlashuvi, ijodiy jarayonda realistik tamoyillarning kuchayishi shular jumlasidandir. Bu davrda Qo'qon adabiy muhitining maydonga kelishi, yuzlab shoiru adiblar, tarixchi va bastakorlar, san'at ahli barakali ijod qilishi xalqimiz madaniyati va ijtimoiy tafakkuri tarixida yorqin iz qoldirdi. O'ziga xos an'ana tusini olgan zullisonaynlik –ikki tilda ijod qiluvchilar tufayli badiiy, tarixiy asarlar bir-birini to'ldirdi va boyitdi.

¹ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. O'zbekiston. Toshkent. 1996. B. 7-8

Ijtimoiy turmushning bugungi va ertangi hayoti qay yo'ldan bormog'i lozimligini aniqlash va rejalashtirish uchun kechagi kunga, aniqrog'i o'tmishga nazar tashlash har qanday fan mutaxassislari uchun sinalgan haqiqatdir. SHunga ko'ra adabiy va madaniy merosimizning o'rganilmagan yoki nisbatan kam varaqlangan sahifalariga zehn solish, ularni Istiqlol mafkurasi nuqtai nazaridan xolis ilmiy tadqiq etish, ulardan ibrat saboqlarini o'rganish – bugunning qadriga yetish va kelajakning izchil taraqqiyot yo'nalishini aniqlash uchun dasturilamal bo'lishi turgan gap.

Adabiyotimizning, xususan, ota-bobolarimizning tafakkur mevalari bo'lmish adabiy merosning hozirgi va kelgusi avlodlarda yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirishga va rivojlantirishga mustahkam zamin ekanligi haqida haqli ravishda ko'p ta'kidlangan.

Prezidentimiz Islom Abdug'anievich Karimov uqtirganidek, "...O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q. Bu haqiqat kishilik tarixida ko'p bora o'z isbotini topdi".² Shunday ekan, har bir millat, xalq va mamlakatning jahon hamjamiyatidagi tutgan o'rni uning dunyo ilm-fani, san'ati va madaniyati rivojiga qo'shgan hissasi bilan birga ota-bobolari tomonidan qoldirilgan adabiy va madaniy merosning ahamiyati bilan o'lchanadi va qadrlanadi. Ana shu nuqtai nazarga ko'ra o'tmishga nazar solsak, ko'hna Turonning buyuk tarixiy ijodkorlari beqiyos adabiy meros qoldirgan dunyodagi eng ilg'or mamlakatlardan biri ekanligiga yana bir karra ishonch hosil qilamiz. Istiqlol sharofati ila ana shu boy adabiy-ma'naviy merosimizni qanday bor bo'lsa shu holicha o'rganish, ilmiy jihatdan xolis tahlil etish va xalqqa taqdim etish imkoniyati yanada kengaydi: "Biz orzu etgan buyuk davlatni bunyod qilish barchamizdan mustahkam iroda, iymon, e'tiqod, milliy g'urur tuyg'usi, buyuk ajdodlarimizdan qolgan ma'naviy bisotga ega bo'lishni talab etadi". YUrtboshimizning ana shu ko'rsatmalariga javoban bugungi kunda ko'p asrlik adabiyotimiz tarixining mutlaqo o'rganilmagan yoki yaxshi ochib berilmagan qirralarini ko'rsatib berish, biryoqlama talqin qilingan jihatlarini yangicha va

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent. "Ma'naviyat". 2008. 4-bet.

xolislik bilan nazardan o'tkazish davr talabiga aylandi. Bitiruv-malakaviy ishimiz mavzusining dolzarbligini belgilovchi asosiy omil hayot yo'li va adabiy merosi yaqin kunlarga beryoqlama, ya'ni faqat dunyoviylik nuqtai nazaridan o'rganilgan siymolardan biri - Qo'qon adabiy muhitining namoyandalaridan biri, o'zbek, fors-tojik tilida birday mahorat bilan qalam tebratgan shoir, zamonasining zabardast so'z san'atkori, ijtimoiy-siyosiy hayotga xolis hamda haqqoniy munosabati bilan Sharq xalqlari tarixida yorqin iz qoldirgan Muqimiy hayoti va ijodiga doir ma'lumotlarni sharhlash, xususan, xalqimiz orasida g'oyat mashhur va bugungi kunda ham sevib o'qilayotgan "Sayohatnoma" asarini ilmiy tekshirish, shoirning she'riy mahoratini o'rganish, adabiyotimiz tarixidagi o'rnini ko'rsatishdir. Buning uchun, avvalo, Mavlono Muqimiy yashab ijod qilgan davr va muhit haqida muayyan tasavvurga ega bo'lish, shoir ruhlangan adabiy an'analar, u adabiy jarayonga olib kirgan o'ziga xos yangiliklarni tahlilga tortish lozim bo'ladi.

O'tmishga xolis nazar solsak, hukmdorlar bilan hukmdorlarning farqi borligi, amaldorlar ham amaldorlardan xulq fazilatlari, yaxshi-yomon ishlari bilan tafovutlanishlari ko'zga tashlanadi. Chunki birlari o'tkinchi dunyoda yaxshi nom qoldirish uchun kurashgan va yashagan bo'lsalar, ikkinchi toifadagilar ko'p vaqt o'z turmushini yaxshilashni, boylik orttirishni, bor narsalarni ham yo'q qilishni o'ylagan, yaratuvchilik g'oyasidan uzoq bo'lgan.

Qo'qon xonligining hukmdorlaridan biri bo'lgan Amir Umarxon bir tomondan mang'itlar sulolasining yirik vakillaridan bo'lishi, hokimiyat uchun bo'lgan kurashlarda faol qatnashishi bilan birga, o'z davri madaniyatining katta arbobi, XVIII asr o'zbek adabiyotining yirik vakili ham bo'lgan. Shu bilan birga, rafiqasi Nodirabegim boshchiligida xotin-qizlarning ijod qilishlari, ilm-ma'rifat bilan shug'ullanishlari uchun ham keng imkoniyatlar yaratgan. Uvaysiydan tortib, Anbar otingacha bo'lgan davrda xotin-qizlar orasidan o'nlab so'z san'atkorlari yetishib chiqishi ana shu e'tibor va g'amxo'rlikning mevasi edi.

Tekshirishlardan ma'lum bo'lishicha, Muqimiy qo'lyozmalaridan ko'pgina lirik asarlar yo'qolgan yoki hanuzgacha topilgani yo'q. Uning adabiy merosi hali

mukammal o'rganilmagan yoki Istiqlolgacha bo'lgan davrdagi tuzum mafkurasining tazyiqi bilan biryoqlama tahlil etilgan.

Shunga qaramay, bizgacha yetib kelgan asarlarining o'zi ham Muqimiyning katta she'riy iste'dodidan, hozirjavoblighi va zukkolidan darak beradi. Uning g'azal va muxammaslari, xususan, "Sayohatnoma" asari o'zbek she'riyati taraqqiyotiga munosib ulush bo'lib qo'shilgan. Shoirning o'ziga xos uslubiy qirralari uning asarlari tilidagi xalqchillik va xalqonalikda, poetik mahorati badiiy san'atlardan o'rinli foydalana olishida, hayotga yaqinligida ko'zga tashlanadi.

Shoirning hayot yo'li bir tekisda kechmaganligi tabiiy. G'azallaridan birida:

Kelsam Hindu Marvdin balki topardim e'tibor,

Shul erur aybim Muqimiy, mardumi Farg'onaman

degan shikoyat va nolasining o'ziyoq uning zamona alg'ov-dalg'ovlaridan, muhitning nizo va fitnalaridan tinimsiz ozor chekkanligini ko'rsatadi.

Shundan kelib chiqib, biz Muqimiyning o'sha murakkabliklar va ziddiyatlarga to'la davrdagi ijodiy faoliyatida shon-shuhratga emas, ma'naviy kamolotga intilish, she'riyat va ijodga talpinish ustun bo'lgan deya xulosa chiqarishimiz mumkin. Manbalardan ma'lum bo'lishicha, Muqimiy o'zi yashagan davr adabiy muhiti namoyandalaridan ma'naviy g'amxo'rlik, hamfikrlilik hamda rahnamolik ko'radi. Zavqiy, Furqat singari mashhur zamondoshlariga bo'lgan ehtiromini ifodalovchi satrlari bundan dalolat beradi.

...O'zlarin zakki olib, xat qilmadilar loaqal,

Emdi Zavqiy yurmasun deb xalq aro hushyor man.

Hasbi hol aylab qilibtur xat, so'rab holin, Muqim,

To qiyomat Furqatiydin emdi minnatdorman.

Muqimiy lirik she'rlarida boshqalarni kamolotga da'vat etar ekan, bu borada o'zi har tomonlama ibrat ko'rsata olgan betakror shaxs ham bo'lgan. Yurtboshimiz iboralari bilan aytganda: "Har qanday bosqin va istilolarga qaramasdan, har qanday og'ir va murakkab sharoitda ham ota-bobolarimiz o'zligini yo'qotmasdan, ma'naviy hayot mezonlari, odob-axloq qoidalariga amal qilib, komillik sari intilib yashagani bugun ham barchamizga ibrat bo'lib, kuch-quvvat bag'ishlab kelmoqda."³

Muqimiy ijodida dunyoviy-insoniy kechinmalar bilan birga diniy-falsafiy, tasavvufiy g'oyalar ham yetakchilik qiladi: ularda biz islom ta'limoti g'oyalari targ'ibi bilan bir qatorda, ilohiy va dunyoviy ishq tarannumi, shoirning olam va odam haqidagi falsafiy mulohazalarining badiiy talqinlari, charxu falakdan, zamonadan va nokas kishilardan shikoyat ohanglari, turli bid'atchiliklar tanqidi, pand-nasihat ruhidagi va hasbi hol xarakteridagi she'rlarni ko'ramiz.

***Qayda bo'lg'ay telba, rasvo yaqoyu ostin,
Ne bilur Majnun degan subh ila shomu choshtin,
Naylayin, o'ylab tiriklikning kamiyu kostin,
Gar qilich boshimga ham kelsa degayman rostin,
So'zki haq bo'lsa: savolimga javobim, kim desun?***

Shoir o'z she'rlarida o'zbek tilining boy imkoniyatlaridan, o'ziga xos xususiyatlaridan mahorat bilan foydalanadi. Muqimiy she'rlarining tili sodda, uslubi ravon, fors-arab so'zlari nihoyatda oz, jonli tilga yaqin. Bu esa shoirning o'zbek adabiy tilining rivojlanishi va taraqqiy etishiga qo'shgan hissasi deyish mumkin.

Muqimiyning umri iqtisodiy qiyinchiliklar, turli voqea-hodisalar girdobida notinch o'tdi. Ammo ilm-ma'rifatga, ijod va yaratuvchilik faoliyatiga hamisha vaqt topa olganligi, boshqalarni ham bu yo'lga muttasil targ'ib qilganligi tahsinga loyiqdir.

Shoirning nisbatan qisqa bo'lgan umri davomida qoldirgan adabiy merosi o'zining ilg'or g'oyalari, vatanparvarlik va insonparvarlik ruhi bilan bugungi

³ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent. "Ma'naviyat". 2008. 7-bet.

kungacha xalqimizning ma'naviy merosi bo'lib kelmoqda. Muqimiy o'zining "Ko'rgan kishi" radifli she'rida kelguvsi avlodlarga vasiyat qilayotgandek, ushbu misralarni bitgan edi:

...Nazmini qildi latofatlik Muqimiy boridin,

Istasin deb to o'qib nomu nishon ko'rgan kishi.

Demak, Muqimiy nafaqat mumtoz adabiyotimizning ulkan namoyandasi, balki xalqimiz ijtimoiy tafakkurida yorqin iz qoldirgan ulug'vor siymolardan biri, tarix sahifalariga o'z nomi abadiy yozilishiga erisha olgan ilg'or fikrli ziyoli inson sifatida ham qadrlanishga loyiqdir.

I BOB. IJTIMOIIY-SIYOSIY HAYOT VA BADIY ADABIYOT

1-fasl. Qo'qon adabiy muhitida satiraning o'rni

Qo'qon adabiy muhiti shoirlari ijodida satirik yo'nalishning alohida o'rni va ahamiyati bor. Zamona hodisalarini, davr xususiyatlarini, zamondoshlarning qiyofalarini aks ettirishda, voqelikni ta'sirchan ifodalashda shoirlar satira qurolidan ham unumli foydalanganlar.

Bugungi kunda mumtoz adabiyot namunalari, jumladan she'riy asarlarni ta'lim tizimida o'qitishning bir qancha muammolari ko'zga tashlanadi. Ulardan eng asosiysi mumtoz adabiyot namunalari matnini tushunish va to'g'ri tahlil etishdir. Chunki adabiyot o'qituvchisi har bir kitobxon qandaydir yangi, hali ma'lum bo'lmagan tomonlarini ochishi mumkin bo'lgan badiiy matnni ilmiy tadqiq qila olishi lozim bo'ladi. U, shuningdek, o'quvchilarga xos, ularning yoshiga mos badiiy idrokni ham hisobga olishi kerak. Demak, adabiyot muallimi har bir mashg'ulot uchun o'rganilajak asarni tadqiq qilishi, undagi shakl va mazmun birligida ifoda etilgan poetik fikrni mutaxassis sifatida idrok etish barobarida badiiy matn vositasida tarbiyalanuvchilarda estetik didni rivojlantirish, ularning ma'naviyatini shakllantirish, shaxslik sifatlarini qaror toptirish bo'yicha ham izlanishi kerak bo'ladi.

Shundan kelib chiqib, "Sayohatnoma" asarini tahlil qilishga kirishishdan avval, mazkur asarning xarater va mazmun mohiyatiga ko'ra qanday asar ekanligini, satira va yumor o'rtasidagi o'xshash hamda tafovutni, muallif murojaat qilgan muayyan janrning ifoda imkoniyatlarini, qolaversa, muallifning o'z badiiy asari ob'ektiga nisbatan qanday pozitsiyada turganligini oydinlashtirib olish lozim deb o'ylaymiz.

Satiraga mavjud lug'atlarda quyidagicha ta'rif beriladi. **Satira** – (yunoncha **satura** – turli, aralash ma'nosida) – ijtimoiy hayotning ma'lum tomoni yo ayrim guruh va shaxslarning yaramas salbiy xislatlaridan achchiq kulib va uni tanqidiy

tasvirlab yozilgan hajviy asar. Satirik asarlar turli janrlarda (roman, hikoya, she'r va boshqa janrlarda) yozilishi mumkin. U holda bunday asarlar "satirik roman", "satirik hikoya", "satirik she'r" deb ataladi...

Yozuvchi *s a t i r a d a* mubolag'adan, fantaziyadan foydalanish yo'li bilan voqeani atayin bo'rttira oladi. Yozuvchi satirik obrazning tashqi qiyofasini ham masxara qilib ko'rsatishi mumkin. Lekin bu bilan yozuvchi kishilarning jismoniy nuqsonlaridan kulmaydi, balki hajv – tanqid ostiga olingan kishining yaramas xislatlarini, xulq-atvorini bo'rttirib ko'rsatadi. Chunki "Satira kamchiliklarni, kishilarning zaif tomonlarini, qabohatlarni masxaralash bo'lmay, balki achchiqlangan hisning hammasi, energiyasi, olijanob g'azabning momoqaldirig'i va chaqmog'i bo'lishi kerak" (V.G.Belinskiy). Mana shunday satira ijtimoiy hayotdagi kamchiliklarni tuzatishga, illatlarni tag-tomiri bilan quritishga xizmat qiladi. Satira badiiy adabiyotning muhim ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyatga molik bo'lgan sohalaridandir... O'tmish o'zbek adabiyotida Turdi, Maxmur, Gulxaniy va ayniqsa, Muqimiy satiraning yirik san'atkorlari sifatida ma'lum va mashhur bo'lganlar... Kichik satirik asarlar ko'pincha she'riy shaklda yaratilgan. Muqimiy, Zavqiy va boshqa yozuvchilarning satirik asarlari: "Bachchag'ar", "Avliyo" (Muqimiy), "Ahli rasta hajvi" (Zavqiy) kabi she'rlar bunga misol bo'la oladi.

Yumor – (lotincha humor –namlik ma'nosidagi so'z) -birmuncha engil tanqidga asoslangan kulgili asar. Yumoristik asarda yozuvchi turmushdagi va ayrim kishilardagi ba'zi bir kamchiliklardan kulib, uni tanqid qiladi. Bunda yozuvchi tanqid qilinayotgan ob'ektning yo'q bo'lib ketishini istamaydi, unga hatto achinadi va undagi kamchiliklarning tuzalishini istaydi. Bu bilan yumor satiradan farq qiladi. Biroq satirada yumor elementi bo'lganidek, yumorda ham satira elementlari mavjud bo'ladi. Yumoristik asar kitobxonning kulgisini qistashi bilan birga, ma'lum ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan fikrni ham ilgari suradi. Xalq xushchaqchaqligidan, uning hozirjavobligidan, xalq hazili va askiyalaridan foydalanish asarning yumoristik mohiyatini kuchaytiradi, badiiy qimmatini

oshiradi... Yumor ba'zan achchiq kinoyaga, N.V. Gogol ta'biri bilan aytganda "ko'z yoshi aralash kulgi"ga aylanib ketadi.⁴

Hajviyot geroizm, tragizm, drammatizm kabi ehtiros (pafos)lardan keyinroq kelib chiqdi, ammo har bir jamiyatni qayta qurish va taraqqiy ettirishda katta xizmat qila boshladi. Chunki u noqobil odamda og'riq qoldiradi, oshkora, kerak bo'lsa haqoratli savalaydigan, qattiq tegadigan bo'ladiyu Goho g'arazliday ko'rinadi, estetik ideal esa muallif obrazida ko'rinadi, buhol kulgi shaklida namoyon bo'ladi. Ammo demokratik satirada simvol, majoz o'rnini hayotiy tiplar, mehnatkash xalqqa hamdardlik oldi, ko'pgina hajviy xarakterlar prototipli edi, lekin satira, umuman, to'qima obraz hayotdagi yaramaslikni fosh etadi, kishilar satira o'zi to'g'risida yozilganday his qiladi, jiddiy o'ylaydi va hayajonlanadi. Bu esa satirada o'ziga xos tipiklashtirish mavjudligini ko'rsatadi. Unga ko'ra, satirik asarda salbiy hodisalarva holatlar shakllanadi, ular bo'rttiriladi, badiiy to'qima mavqei ortadi. Qo'yilayotgan masalalarda majoziy obrazlardan foydalaniladi, ijobiylikni ma'qullash hajviy tasvir orqali amalga oshiriladi. Satirik tipning o'zi hayotdan olinadi, badiiy to'qima orqali to'kislanadi, realistik detallar, o'ta mubolag'a, karikatura, shartlilik, mantiq, fosh etish, muhim qirralarni topish yo'llari qo'llaniladi. Shunda hayotda ko'zga tashlanmay yurgan hajviy xarakterni el ko'ziga olib chiqiladi. Shu boisdan, satirik qiyofa ichki tomondan tanlanadi, yorqin pozitsiyadan turib, ilg'or qarash, taraqqiyparvarlik jihatidan shiddatli, keskin tasvirlanadi. Yolg'on va chin, soxta va haqiqiy, olijanoblik va tubanlik, go'zallik va xunuklik yonma –yon qo'yiladi. Estetik ideal bir necha yo'l bilan ayon bo'ladi, yomonni uzil-kesil fosh etish, tuzatish satirik asarda ijobiy obraz yoki ideal fazilatlarni qarama-qarshi qo'yish orqali namoyon bo'ladi. Demak, satira "yo'qotish"ni, yumor tuzatishni niyat qilib oladi. Satira mumtoz adabiyotda "hajviya" deb atalgan, ammo unda satira va yumor elementlari uyg'unlashib ketgan. She'riy satirada hisiyot birinchi planga chiqadi, siqqlikka e'tibor beriladi, emotsional bo'yoqdorlik katta rol o'ynaydi.

⁴ Adabiyotshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent. 1980.199, 258-betlar.

Inson hayot ekan, unga kulgu hamdamdir. Donishmandlardan biri kulguni barcha qusur va noqisliklarni yo'q etuvchi eng qudratli qurollardandir deyishi bejiz emas. Shuning uchun kishilarning eng qadimiy ijodiyotidan tortib bizning kunlarimizgacha bo'lgan badiiy asarlarda hayotda uchraydigan kamchilik va qusurlarni kulgu vositasi bilan tanqid qilish usuli yashab kelmoqda.

Hajv Yusuf Xos Hojib va Ahmad Yugnakiy asarlarida element holida bo'lsa-da, ko'rina boshlaydi. Keyinchalik Lutfiy, Yusuf Amiriy, Yaqiniy singari shoirlarning asarlarida hajv alohida obrazlar, epizodlar vositasida namoyon bo'la boshlaydi. Ammo o'zbek adabiyotida Navoiygacha maxsus satirik va yumoristik asarlar yozgan shoirlarni uchratmaymiz. Shunday bo'lsa-da, hajviy elementlar ma'lum estetik-g'oyaviy vazifani o'tab, alohida g'azallar turining, hajviy g'azallarning vujudga kelishiga zamin bo'ldi.

Atoyining hajv elementi va yumor bilan yo'g'rilgan g'azallaridan biri quyidagicha boshlanadi:

***Seni men ongladim, bevafo emishtuksan,
Ko'ngulga ofatu jong'a balo emishtuksan...
Gaheki bossa oyog'in yuzumga noz ila der:
"Ayog'im og'ridi, ne bo'ryo emishtuksan?"
...Yuziga ko'p tika boqsam, manga kulub aytur:
"Atoyi, ne ko'zi to'ymas gado emishtuksan?"***

Bunday baytlar, albatta, hajviy g'azallarning shakllanishi va rivojida ahamiyatli bo'lgan.

O'zbek mumtoz adabiyoti tarixida hajviy g'azallarning chinakam ixtirochisi Navoiy bo'ldi. Uning hajviy g'azallarining mavzular ko'lami keng va rang-barangdir. Shoir munofiq va hiylakor shayxlar, xudbin, badbin zohidlar, johil voizlar ustidan kuladi va ularni fosh etadi. Uning "Meni ishqdin man' etar soda shayx" deb boshlanuvchi satirik g'azalining o'zi o'zbek adabiyotida alohida turkumni tashkil etib, biz so'z yuritayotgan Xorazm adabiy muhitida ham ko'plab shoirlar ushbu g'azalga naziralar yozdi. "Ul shayxki, minbar uza afsung'a berur tul", "Necha yolg'on so'zu muzhik harakot, ey voiz", "Xonaqohda halqai zikr

ichra g'avg'o qildi shayx", "Masih oyin agar minbarda zohir qilsa dam voiz" singari o'nlab g'azallari hanuzgacha mashhur va sevib o'qiladi. Bu g'azallarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, ularda realistik tamoyil ustun bo'lib, riyokor shayxlar, voizlarning haqiqiy qiyofalari real bo'yoqlarda umumlashtiriladi.

Keyinchalik Turdi, Maxmur, Munis, Ogahiy, Muqimiy, Zavqiy, Avaz O'tar, Faqiriy singari ko'plab shoirlar hajviy hamda yumoristik g'azallar yaratdilar. Ular she'riyatda satiraning mavqeini mustahkamladilar. Hajviy hamda yumor g'azallarning mavzular doirasini ancha kengaytirdilar, g'azalga yangidan yangi tip hamda obrazlarni olib kirdilar. Muqimiy davri o'zbek adabiyotida satiraning yangi bosqichga ko'tarilishi omillarini adabiyotshunos A. Abdug'afurov quyidagicha sharhlaydi: "O'zbekiston territoriyasining Rossiyaga qo'shib olinishi natijasida... ikki yoqlama zulmning, adolatsizlikning nihoyatda kuchayib ketishi, kapitalistik munosabatlarning tobora yuzaga chiqqan borishi, xalqimizning zulm va adolatsizliklarga qarshi o'z ozodligi uchun kurashining faollashuvi, hukmron sinflar va tuzumning tartib-qoidalaridan noroziligining kundan kunga orta borishi, ikkinchi tomondan... o'zbek adabiyotida tanqidiy realizm metodining shakllanishiga, bu adabiyotda, ayniqsa, satirik yo'nalishning keng rivojlanishiga olib keldi."⁵

Satiraga murojaat qilgan shoirlar ko'proq g'azal janridan foydalandilar. Buning sababi, fikrimizcha, ushbu janrning boshqalarga qaraganda xalqqa yaqinligi, o'z taraqqiyoti davomida ko'p asrlik tajriba va an'analarga ega bo'lishidir. Buning ustiga, satirik va yumoristik g'azallar xalq orasida juda tez tarqalar, hatto qo'shiq qilib aytilar edi. Rost so'zni ayta bilish, haqiqatni har qanday xolatda ham himoya qila olishga tayyor turish satirik shoirlarning g'oyaviy pozitsiyasiga aylanganligini Muqimiyning quyidagi misralaridan ham ilg'ashimiz mumkin:

***Gar qilich boshimga ham kelsa degayman rostin,
So'zki haq bo'lsa, savolimga javobim kim desun.***

⁵ Abdug'afurov A. O'zbek demokratik adabiyotida satira. Toshkent 1961. 64-bet.

Qo'qon adabiy muhitining yana bir namoyandasi bo'lgan Zavqiy ham Muqimiyga hamohang ravishda o'z ijodiy prinsipini quyidagicha bayon qilgan edi:

***She'r eshitmaydi birov, davron qulog'i anga kar,
Bir hovuch oltin, kumushning xush jarang ovozi bo'l!***

***...Istamas bo'lsa zamona Zavqiy yozgan she'rni,
Kim eshitsun arzining xoh rozi, xoh norozi bo'l!***

Badiiy adabiyotda biror yo'nalishning, masalan satiraning taraqqiy etishi va keng qo'llanilishi shoir yashagan hudud bilangina emas, balki ijtimoiy-siyosiy tuzum, voqelik hamda tarixiy vaziyat bilan ham bog'liqdir. Masalan, Muqimiy va Zavqiylarga zamondosh bo'lgan Xorazm adabiy muhiti vakili Avaz O'tar ijodida ham satirik yo'nalish salmoqli o'ringa ega. Avazning "Xalq", "Topar ekan qachon?", "Fidoyi xalqim", "Ulamolarga", "Birovlar" kabi she'rlari ana shu ruhda yozilgan satirik ijodning ajoyib namunalaridir. Bu g'azallarda shoir xalqning xonavayron bo'lganini, zulm ostida qolganini, zamonaning nosoz qurilganini, jaholat hukmronligini achinish va alam, xolislik va haqgo'ylik bilan tasvirlab bergan.

***Yo'q jahon mulkida bizdek ojizu bechora xalq,
Zulm tig'i birla bo'lg'on bag'ri yuz ming pora xalq.***

***Bir necha avboshlar bundog' hukmron aylasa,
Qolmag'ay, ori, na yonglig' mehnatu ozora xalq?***

***Na alarda bordurur ilmu adolatdin asar,
Ne ajabkim, topmasa dog'i dilig'a chora xalq.***

***Yetgan ofatni boshig'a doimo taqdir deb,
Hasratu armon bilan ketgusi bora-bora xalq...***

Mumtoz satirik asarlarda, xususan, Qo'qon adabiy muhiti namoyandalari tilida ham yangiliklar va yangilanishlar yuz bera boshladi. Ayniqsa, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi adabiyot namunalarida xalq orasida ko'p qo'llanadigan, adabiy tildan mustahkam o'rin olmagan so'zlar izchil ishlatila boshladi. Bu hol satirik asarlar tilini xalqqa yanada yaqinlashtirdi, ommalashishini tezlashtirdi.

2-fasl. “Sayohatnoma”ning janr xususiyatlari va obrazlari

Shoirlarga xalq bilan, turmush bilan bog'lanishni targ'ib qilgan Muqimiy o'zi ham xalq bilan aloqasini uzmagani. Hamisha el-yurt tashvishi bilan yashaganligini shoirning zamondoshlari ham yozib ketganlar. Zero, xalq boshiga tushayotgan kulfat-balolarni shoir o'zinikidek qabul qilgan (“O'zgalara rohatu, menga azob”, “El tamizidin hazar et, al'amon”). Jamiyat bilan uzviy bog'langan holda ijod qilish Muqimiy asarlarining g'oyaviy va badiiy fazilatlarini oshirishda, adabiyotning hayot oldidagi vazifalarini aniqlashda muhim rol o'ynagan.

Mavlono Muqimiyning bu xildagi ijodga bo'lgan munosabatlari keyingi davrlar adabiyotshunoslari, adib va yozuvchilari tomonidan ham qayta-qayta ta'kidlangan.

Xuddi shu fikrlardan bizning mavzuimizga aloqador xususiyat ham kelib chiqadi. Shoir har qanday janrlarga qo'l urib, badiiy obrazlar yaratayotganida unga turli tabaqalar vakillarining psixologiyasi, turish-turmushini yaxshi bilganligi qo'l keladi. Natijada shoir yaratgan lirik obraz va ijtimoiy tiplarning xarakterlari hayotiylik ta'minlanadi.

Muqimiy she'rlarining milliy va umumbashariy g'oyalar tashishi, lirik obrazlarning mukammalligi, xarakterlarning hayotiylik shoirni o'z davri an'analardan yuqori ko'targan xususiyatlardan biridir. Ulug' shoir ko'plab salafлари, zamondoshlaridan farqli ravishda, lirik obrazlarning tashqi portretiga e'tibor beribgina qolmasdan, ularning ruhiy-ma'naviy olamiga ham keng yo'l ochdi. Bir so'z bilan aytganda, shoir yaratgan lirik obrazlar muallifning yuksak ideallarini tashish bilan birga, hayotga juda yaqin keldilar va she'riyat muxlislarining ko'ngil mulkiga aylandilar.

Mumtoz adabiyotimiz tarixida ma'lum g'oyaviy va badiiy xususiyatlarga ega bo'lgan “Sayohatnoma” janri, garchi undan oldin ham murabba' janrida asarlar yaratilgan bo'lsa-da, janr e'tibori bilan hamda uning g'oyaviy-estetik funksiyasi, xarakteri va obrazlar tizimiga ko'ra Mavlono Muqimiyga mansubdir. Shoir turli yo'nalishlar (Qo'qon – Farg'ona, Qo'qon – Shohimardon, Qo'qon –

Isfara) bo'ylab qilingan safar hamda sayohatlar taassurotlarining she'riy ifodasidir.

Muqimiy "Sayohatnoma"si muallif hayotligidayoq ma'lum va mashhur bo'lib, to bugungi kungacha badiiy-estetik ta'sirchanligini yo'qotmay kelmoqda. Ushbu asar o'z vaqtida o'xshatma va naziralarni ham maydonga keltirdi. Shoir Zavqiy ham Muqimiy "Sayohatnoma"larining ruhini, uning vaznini, qofiya tizimini, murabba' – to'rtliklar usulini saqlagan holda ana shunday asar yozganligi ma'lum.

1892 yilda Furqatning Hindistondan Xitoyga qilgan safari davrida unga hamroh bo'lgan shoir Tajalliyning ham Muqimiy "Sayohatnoma"siga javoban shunday tipdagi asar yozganligi to'g'risida ma'lumotlar bor. Ammo bu asar bizgacha to'liq yetib kelmagan.

Muqimiy "Sayohatnoma"lari yo'nalishlar nomidan kelib chiqib, uch xil nomlansa-da, aslida ular yaxlit bir asardir. Chunki ularning g'oyaviy maqsadi bir xil bo'lib, ularning hammasida muallif yagona niyatni – turmush va voqelikdagi kuzatishlarini bayon etishni nazarda tutadi. Asarning kompozitsion qurilishi, badiiy-estetik xususiyatlari hamma o'rinda ana shu maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi.

"Sayohatnoma" tahlili bilan bog'liq bo'lgan eng muhim masalalar quyidagilarni tashkil etadi:

- 1. "Sayohatnoma"da muallif obrazi.**
- 2. "Sayohatnoma"da hokim guruh va ayrim ijtimoiy tiplarning fosh etilishi.**
- 3. "Sayohatnoma"da tabiat tasviri.**

Asar muallifi o'z sayohatlari taassurotlarini bayon etar ekan, u turmush va o'zi mansub bo'lgan davr voqeligi xususida bahs yuritadi. Asar mazmun-mohiyatidan shoirning ma'naviy dunyosi ochiladi, munosabat va mushohadalarda muallif obrazi ko'z oldimizda gavdalanadi. Muallif obrazi tahlilida quyidagi jihatlarga e'tiborni qaratamiz: Avvalo shoirning sayohatga chiqish sababini qanday

izohlashini ko'ramiz. "Qo'qondan Shohimardonga" qismining muqaddimasi quyidagicha:

*Faryodkim, garduni dun
Aylar yurak-bag'rimni xun,
Ko'rdiki, bir ahli funun –
Charx anga kajraftor ekan.*

*Qolmay shaharda toqatim,
Qishloq chiqardim odatim,
Xohi yayov, bo'lsin otim,
Gah sayr ham larkor ekan.*

Muqimiy sayohatining sabablariga oid yana bir parcha "Qo'qondan Isfaraga" qismida ham berilgan. Bu parchada ham shoir o'z sayohatining sabablarini yuqoridagi muqaddima bandlarida qanday ko'rsatgan bo'lsa, shunday ko'rsatadi:

*Aflok kajraftor uchun,
Har dam ko'ngu afgor uchun,
Xo'qand tangu tor uchun
Sahro chiqish darkor ekan.*

Ko'rinadiki, "garduni dun" – teskari aylanuvchi falak zulmi jafosi ostida "yurak-bag'ri xun", "ko'ngli afkor" bo'lgan muallifning shaharda turolmay, qishloq-sahrolarga sayr qilib, o'z ko'nglini yupatishga, dard-alamlarini bir oz bo'lsa-da unutishga intilgani aytiladi. Muqimiyning mazkur asari yaratilgan paytda (1890 yillar atrofida) shaxsiy hayotidagi noqisliklar, iqtisodiy tanglik, bo'g'iq muhit muallifni shaharni vaqtincha bo'lsa-da tark etishiga sabab bo'lganligi tabiiy. Muqimiyning hayot sharoiti bu davrda shu qadar og'ir va kulfatli ediki, unda Qo'qonni butunlay tashlab ketish, g'urbatni ixtiyor etish kayfiyati ham paydo bo'lgan. Bu hol uning muxammas she'rlaridan birida ham aks etgan:

*Bedimog'u mulku molam, dilda yo'q zavqi shikor,
So'rg'udek holi xarobimdin na bir xeshu tabor,
Emdi xush, ahli zamondin tutmak anqodek kanor,
Necha dermankim, Muqimiy, g'urbat aylay ixtiyor,
Bir vatandin dil uzib, g'ayrat qilolmay dog'men.*

Ammo shoirning bu niyati amalga oshmay qoldi va Farg'ona vodiysidagi kichik sayohatlar bilan cheklanishga majbur bo'ldi. Shohimardon, Isfara, So'x singari bahavo joylarga sayohatga chiqishni uning salomatligi yomonlashuvi ham taqozo etgan bo'lishi mumkin.

“Sayohatnoma”ning turli o'rinlarida Muqimiy o'z kayfiyati, kechinmalari to'g'risida so'zlaganda, o'zining “ma'yus”, “Ko'ngli mahzun” ekanligini “Majnun sifat”, “devonavash” tabiatini ta'kidlaydi:

*Ma'yus bordim Zohidon,
Bir ko'cha ketkuncha do'kon,
Sho'x odami ichmay piyon,
Mast, otasi bezor ekan.*

Yoki:

*Chun shahridin chiqdim “Qudash”,
Ko'ngul bo'lib mahzunu g'ash,
Majnun sifat, devonavash,
Serchashma-yu, kam chang ekan.*

Yana bir o'rinda:

*Ma'yus chiqdim “Isfara”,
Dil xasta, majruhu yara,
Issiqda kuygan qop-qora,
Olti jihat ko'hsor ekan.*

“Sayohatnoma”da muallif obrazining bunday ma'yus, ko'ngli mahzun, dili yarali holda tasvirlanishi tasodifiy hol emas. “Sayohatnoma”dagi muallif obrazi Muqimiy she'riyatidagi lirik qahramon xarakteriga hamohang bo'lib, uni

ma'lum ma'noda to'ldiradi. Shoir lirik qahramoni ham adolatsizlik va nohaqlik hukmron bo'lgan jamiyatda o'zining yuksak orzu-umidlariga yeta olmaganidan so'ng chor-nochor hasrat qilishga, davr va muhitdan nolishga, bevafo charxdan shikoyat qilishga majbur bo'lgan edi. "Sayohatnoma"da ham xuddi shunday holatlarning guvohi bo'lamiz. Mavjud turmushdan, unda o'rnatilgan zo'ravonlik tartiblaridan, yuqori tabaqalar manfaatiga xizmat qilayotgan qonun-qoidalaridan ko'ngli to'lmagan shoir uni tark etishni xohlaydi, ma'yus va mahzun bo'lib, sahrolarni orzu qilib qoladi. Muallifning "Sahro chiqish darkor ekan" degn so'zlarida o'zi mansub bo'lgan jamiyat orasiga sig'may qolib, sahrolarga bosh olib ketgan Qays – Majnun ahvolini his qilamiz.

Demak, "Sayohatnoma"dagi muallif obrazi shoir she'riyatidagi lirik qahramon bilan hamohang bo'lib, har ikkisi bir-birini to'ldiradi, xarakter qirralarini boyitadi.

Mumtoz so'z san'atkorlari badiiy ijodga qo'l urib, turli obrazlar yaratayotganlarida ularga barcha tabaqa vakillarining psixologiyasi, turish-turmushini yaxshi bilganliklari qo'l keladi. Natijada badiiy obraz va xarakterlar hayotiyli, qo'llangan poetik san'atlarning tabiiyligi ta'minlanadi. Bunda shoir mavjud voqelik, unda yashab turgan odamlarning qarashlari, ma'naviyati, saviyasi va qiziqishlariga suyanadi. Shu zaylda davr va sharoitga qarab, poetik obrazlar mundariyasi o'zgarib, boyib boradi yoki ba'zilar o'rnini boshqalari egallaydi. Demak shoir yaratgan obrazlar o'sha davr ijtimoiy-siyosiy, ruhiy-ma'naviy masalalarining ko'zgusi ham hisoblanadi. Lutfiy, Navoiy, Bobur, Muqimiy va boshqa bir qator ta'lim tizimida o'rganish uchun ijodidan namunalar kiritilgan ijodkorlar nihoyatda murakkab tarixiy sharoitda, turli xil ziddiyatlar to'lib toshgan davrlarda yashab ijod etdilar. Ayniqsa, biz ijodi xususida so'z yuritayotgan Muqimiy xalq ikki tomonlama zulm ostida ezilayotgan davrda, turli ijtimoiy-siyosiy ziddiyat va nifoqlarning ichida yashashga, ijod etishga majbur edi. Ana shunday ziddiyatlar ham ilg'or fikrli kishi, ham shoir sifatida uni behalovat qilib, yangi-yangi asarlar yaratishga, amalda hal etib bo'lmaydigan muammolar yechimini badiiy ijodda topishga olib kelar edi. Shu tariqa shoirning badiiy

obrazlari tizimi ham tobora kengaydi. Bunday obrazlar zimmasiga yuklanadigan vazifalar salmog'i ham ortib bordi.

“Sayohatnoma” o‘z davri nuqtai nazaridan realistik badiiy asar bo‘lib, shunday janr (murabba’) da yaratilgan o‘zidan oldingi so‘z san’ati namunalaridan ancha olg’a ketadi. Unda **hokim guruhlar va mahalliy amaldorlar, mingboshilar, bo‘lis boshliqlari, riyokor va mutaassib din peshvolari** ayovsiz tanqid ostiga olinadi. Muqimiy real voqelik va xalq turmushini sinchkovlik bilan kuzatib, oddiy odamlar hayotini mehr va achinish bilan tasvirlasa, ikkinchi tomondan chor amaldorlari, ularning mahalliy malaylari kirdikorlarini nafrat va g‘azab bilan fosh etadi. Shoir o‘z hajvgo‘ylik iste’dodini ishga solib, munofiq mingboshilar, adolatsiz qozilar, noinsof boylar va boshqalarni asl basharalarini ayovsiz ochib tashlaydi:

*Mingboshilik kimning ishi,
Desam dedi: bedonishi,
Bir “qo’shtegirmonlik” kishi –
Hoji Iso badkor ekan.*

*Mag’rur, xasisu beshu kam,
Har gapda yuz ichgay qasam,
Tagjoy olur moxovdanam –
Hoji o’zi murdor ekan.*

Do‘rmoncha qishlog‘ining hokimi ham yaramas fe‘l-atvori bilan Hoji Isodan qolishmaydi. Bu qishloqning volost (bo‘lis) boshlig‘i G‘ozi ismli kishi zolimlik va shafqatsizligi bilan shuhrat qozongan, el-yurt nafratiga duchor bo‘lgan edi:

*Unda bo‘lis G‘ozi dedi,
Ham mufti, ham qozi dedi,
Yurt barcha norozi dedi,
Qilgan ishi ozor ekan.*

“Ham mufti ham qozi” deganda shu narsa anglashiladiki, amaldor G’ozi biror ishga din va shariat nomidan o’zi fatvo berib, mansabdor ijrochi (qozi) sifatida ana shu fatvoni o’zi amalga oshiradi. Natijada oddiy xalq vakillari dardi va muammosini kimga arz qilishni bilmaydilar. Ya’ni “o’zingdan chiqqan baloga, qayga borursan davoga”, deganlaridek, dard-hasrati ichida qolaveradi.

Muqimiy mehnatkash xalqni ayamay ezuvchi ana shunday mansabdorlarni ijtimoiy tip sifatida fosh etib qolmay, ularning odam sifatida ham pastkash, jirkanch tabiatli kimsalar ekanligini ko’rsatib beradi. Ulardan biri Oltiariq mingboshisidir:

***Mingboshisi so’finamo,
Tasbihi bo’ynida rido,
Cho’qib qochar zog’i alo,
Bir dog’uli ayyor ekan.***

***Xayru saxo vajhiga kar,
Bir pulni yuz yerdin tugar,
Kelsa gadoy nogoh agar
Bir non chiqish dushvor ekan.***

“Sayohatnoma”dagi ijtimoiy tiplar va badiiy obrazlar haqida gapirganda, ularning shoir tomonidan she’riyatga olib kirilishi borasida fikr yuritganda faqat ijtimoiy-siyosiy voqelik masalasi bilan cheklanib qolish unchalik to’g’ri emas deb o’ylaymiz. Donishmandlardan birining “tashbeh qo’llashda mohir bo’lgan shoir jahongirroq bo’ladi”, degan fikrlarini adabiy obraz yaratish masalasiga ham tatbiq etish mumkin. Muqimiy o’zigacha mavjud bo’lgan adabiy obrazlar hamda an’anaviy badiiy san’atlar bilan cheklanib qolganida bu qadar mashhur bo’lolmasdi.

***Mingboshi Eshdavlrat akam
Ammo quruq savlat akam,***

Qilsa chiqim gar bir diram,

Uyqu qochib, bedor ekan.

Muqimiyning amaldorlarni bunday xasis qilib ko'rsatishi tasodifiy emas edi. Ma'lum bo'lishicha, chor hukumati davrida bosqinchilarning ishonchiga kirib olgan mahalliy amaldorlar o'zlariga biriktirilgan qishloqlarda istaganicha hukm yuritar, mansabni egallash uchun sarflaganlarini oddiy xalq hisobidan ortig'i bilan undirib olishga intilar edilar. Muqimiyning "Tanobchilar" satirasidagi Sulton Alixo'ja bilan Hakimjonlarning xalqqa qarab "O'ldiradigan ham, kuydiradigan ham o'zim", deya o'shqirishlarida ana shu mantiq ko'rinib turadi. "Sayohatnoma" muallifi o'zidan avvalgi adiblar ijodiy merosida ko'p uchraydigan xasis va ziqna kishilarning obrazlarini shu tariqa real hayotga o'ta yaqin olib keldi. Ular aniq tarixiy shaxslar timsolida "bir diram sarflasa uyqusi kelmaydigan", "bir pulni yuz yerdan tugadigan" hayotiy obrazlarga aylandilar.

"Sayohatnoma"dagi yana bir muhim xususiyat shuki, shoir real hayot lavhalarini ko'rar, mushohada etar ekan, chuqur umumlashmalar qiladi. Ochko'z va zolim amaldorlarni, noinsof va ziqna boylarni, xarob bo'lgan qishloqlarni, og'ir mehnat, zulm va nohaqliklar yuki ostida ezilgan och va yupun dehqonlarni, mustamlaka sirmog'ida bo'g'ilgan o'lka hayotini, o'rnatilgan tartiblarni ko'zdan kechirar ekan, bunday hayot odamlar uchun qurilgan dor, jallod kundasidir, degan xulosaga keladi ("Olamni tahqiq ayladim – Dunyo qurilgan dor ekan!")

"Sayohatnoma"dagi tanqidiy o'rinlar uning satirik xarakterini belgilaydi. Mingboshi, bo'lis boshliqlari va boshqa amaldorlar haqida yozilgan bandlar nafaqat Muqimiy satirasidagi, balki o'zbek mumtoz hajvchiligi xazinasidagi noyob durdonalar hisoblanadi.

"Sayohatnoma"dan o'rin olgan **tabiat manzaralari tasviri** ham o'quvchida chuqur badiiy-estetik zavq uyg'otadi. Chunki sayohatdan asl maqsad ham nafaqat jamiyat hayotiga nazarni, balki tabiat go'zalliklaridan bahra olishni ham anglatadi. Shoir Farg'ona vodiysi bo'ylab qilgan sayohati davomida turli qishloq va dalalar, sahro va dashtlarda bo'lar ekan, tug'ilgan yurti tabiatining go'zalliklaridan quvonadi, zavq oladi va ularni yuksak badiiy tasvirlaydi. Shoir o'z

vatanini, uning jo'shqin soylarini, baxmaldek qirlarini, serfayz dala va bog'larini, ulug'vor tog'larini sevib tilga oladi. Asardagi bu xususiyat muallifni ko'z oldimizda tabiatning jo'shqin kuychisi, otashin vatanparvar sifatida gavdalandiradi.

Shoir Rapqon haqida so'z yuritir ekan, quyidagi misralarni bitadi:

***“Rafqon” ajoyib joy ekan,
Bir ko'cha ketgan soy ekan.
Salqin supa hoy-hoy ekan,
Kim ko'rsa hangu mang ekan.***

Yaypan ta'rifida esa quyidagi serzavq satrlarni o'qiymiz:

***Yayfan kabi tolzor kam,
Yo'q soyasida zarra g'am,
Zebo sanam, qoshi qalam
Jononlari bisyor ekan.***

Rishtonni esa jannat bog'larini eslatuvchi maskan sifatida tilga oladi:

***Ammo nazarda “Roshidon”
Firdavs bog'idin nishon,
O'ynab oqar obiravon,
Sahni gulu gulzor ekan.***

Vodil qishlog'i ham “Sayohatnoma” muallifida chuqur taassurotlar qoldiradi va bu yerning tabiati haqida quyidagi misralarni bitadi:

***“Vodil” maqomi dildizo,
Ko'chalaridur dilkusho,
Anhorida obi safo,
Sebarga, obishor ekan.***

Adabiyotshunoslikla peyzaj deb nomlanuvchi tabiat manzaralari tasviri badiiy adabiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Muqimiy o'z asarida tabiatga munosabati orqali ruhiy holati, kechinmalari hamda ijtimoiy masalalarga munosabatini ham ifodalaydi.

Ma'lumki baliq go'shti shariat fatvosiga ko'ra eng halol luqmadir. Ammo shunday odamlar borki, eng og'ir gunohlardan bo'lgan yetimlar haqini yeb

ketishdan ham toymaydilar. Ular uchun yetim va g'ariblarning haqini o'zlashtirish "luqmai halol" – ya'ni baliq go'shtini iste'mol qilish bilan barobar. Muqimiy Beshariq haqida so'z yuritayotib, bu yerning bog'larida nimagadir tariq ko'p ekilishiga e'tibor beradi. Shu zahoti ayrim noinsof kishilarning yuqorida aytilgan qilmishlarini qoralaydi:

Ko'p odamidin "Beshariq",

Bog'larda ekmishlar tariq.

Yetim haqi – go'shti baliq,

Qilmishlari nayrang ekan.

Yoki xushhavo Yaypan to'g'risida so'z borayotganida u yerda yashovchi aksariyat odamlar tabiatidagi janjalga moyillikni ta'kidlaydi:

"Yayfan" agarchi xushhavo

Odamlari yengilnamo.

Bir-birlarila doimo

Bo'lar-bo'lmasga jang ekan.

Xulosa qilib aytganda, Muqimiy nafaqat mahoratli so'z san'atkori, balki o'z davrining ulkan donishmandi, ma'rifatparvari, faylasufi sifatida ham barakali qalam tebratgan hamda birgina "Sayohatnoma" janrida bitgan asarlari misolida ham kelguvsi avlodlarga qimmatli ma'naviy-madaniy meros qoldirishga muyassar bo'lgan.

II BOB. VOQELIK VA MUALLIF MUNOSABATI

1-fasl. Ijtimoiy tiplarning satirik talqinlari

Badiiy adabiyot ijtimoiy hayotning ko'zgusidir. Voqelikda ro'y berayotgan hodisalar, turmushdagi o'zgarishlar, xalqning orzu-umidlari va intilishlari davrning peshqadam kishilari bo'lgan so'z san'atkorlarining qalami orqali u yoki bu darajada aks etib boradi. Albatta, voqelikning qanday va qaysi pozitsiyada turib badiiy ifodalanishi shoirning dunyoqarashi, iste'dodi, fe'l-atvori, ta'bidagi muayyan moyilliklar ta'sirida yuzaga keladi. Taqdiridan xushnudlik yoki aksincha zamona nosozliklaridan norozilik, o'z maqeidan iftixor yoxud davr adolatsizliklaridan shikoyat shoir ijodida madh tipidagi lirik asarlarni yoki aksincha satirik ruhdagi adabiyot namunalarini maydonga kelishiga sabab bo'ladi.

Muqimiy davri adabiy muhiti haqida so'z ketganda ham ana shu ikki pozitsiyada turgan ijodkorlarni ko'z oldimizga keltirishimiz mumkin. Adabiyotshunos Po'latxon Qayyumiy tomonidan tartib berilgan tazkirasida Qo'qon adabiy muhitining yetakchi ijodkorlaridan 120 nafari haqida ma'lumot berilgan. Tazkirada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Qo'qonda yashab ijod etgan shoirlarning har biriga xos asosiy xususiyat ularning taxallusi oldidan keltirilgan va bu ayni paytda ularning muxtasar ta'rifi hamdir. Jumladan, Ado, Hoziq, Fazliy, Mahjub, Nodim va boshqalar. Ularning ko'pchiligi qasida va nazira yozishda, ba'zilar lirik shoir sifatida, ayrimlari esa satirik asarlar yaratishda peshqadam bo'lganlar. Saroy muhitida ularga bir xilda munosabatda bo'linmaganligi, maddoh hamda nazirago'y shoirlar ko'proq xon iltifotiga loyiq bo'lganlari, hajvchi shoirlar esa e'tibordan chetda qolib, hatto ta'qib ostiga olinganliklari haqida ma'lumotlar berilgan.

Agar Qayyumiy tazkirasini Fazliyning Qo'qon adabiy muhiti namoyandalari haqidagi "Majmuai shoiron" tazkisasi bilan taqqoslasak, sezilarli tafovutni kuzatamiz. Fazliy "Majmuai shoiron"da "ba tab'i shoh" – shohning didiga mos keladigan asarlar yozgan shoirlar (Fazliy, Mushrif, Ado, Xijlat va

boshqalar) tahsinu maqtovlarga sazovor bo'lsa, xalqning og'ir hayotini tasvirlab, o'z zamonasiga norozilik bildirgan Maxmur, Gulxaniy kabi qalamkashlar ochiqdan ochiq qoralanib, kamsitiladi. Po'latxon Qayyumiyning Qo'qon shoirlari haqidagi tazkirasida esa birorta shoir shaxsiyatiga nisbatan haqoratimiz so'zlar qo'llanilmaydi. Haziniy, Kaltatoiy, Zavqiy kabi shoirlarga nisbatan tanqidiy munosabat uchrasa-da, bu faqat ularning ijodiga tegishli va asosli bo'lib, uni inson sifatida yerga urishga intilish yo'q.

Darhaqiqat, hayot haqiqatini kuylash borasida Qo'qon adabiy muhitining yirik vakillari Akmal, Gulxaniy, Maxmur boshqa shoirlardan farq qiladilar.

Darhaqiqat, Maxmur xon iltifotiga sazovor bo'lish uchun tirishmagani, maddohlikdan yiroq bo'lganligi uchun ham saroydan o'z munosib o'rnini topa olmagan. Uning tabiatidagi isyonkorlik, hajvga moyillik, to'g'riso'zlik shaxsiy hayotida ham ko'plab kulfatlar keltirdi. Bu esa o'z navbatida shoir ijodida zamon nosozliklaridan shikoyat hamda voqelikka tanqidiy nazarni keltirib chiqardi.

Shoirning iqtisodiy nochorlikda kun kechirishi, hukmron tabaqalarning nazaridan qolishi, iste'dodiga yarasha e'tibor topa olmasligi uning ruhiyatida isyonkorlik tuyg'ularini uyg'otishi tabiiy edi.

Shoir bora-bora hayotni kengroq va chuqurroq idrok eta boshlaydi. Yon atrofida o'ziga o'xshash juda ko'p baxtsiz kishilarni, ijtimoiy adolatsizliklarni ko'ra boshladi. U aksariyat mehnatkash, hunarmand va ma'rifat sohiblarini g'am-alamda, johil davlatmandlarni aysh-ishratda ko'rdi. Zamona kulfatlaridan o'zi singari aziyat chekayotgan kishilarga hamdardlik tuyg'ularini ifoda eta boshladi. Oddiy xalq ahvolini o'z ko'zi bilan ko'rgan shoir "Sayohatnoma" asarida dunyoni dorga o'xshatadi:

Bo'lma halovatga kasal,

Olamda yo'q benish asal,

Beshak mukofoti amal,

Dunyo qurulg'on dor ekan.

Muqimiy yashagan muhitda hukmron doiralar biron narsaga qurbi yetmagan oddiy fuqaroga ham, mol dunyosi bo'lmagan olim, fozil kishilarga ham past nazar

bilan qarash hollari uchrar edi. Ularning andozasi nasl-nasab, mansab va mol dunyo edi. Shoir o'z mol-dunyosini ko'z-ko'z qiluvchi, noinsoflik vositasida boylik orttiruvchi davlatmandlarni qoralab, ularning kibru havosidan kuladi, nafratlanadi. Ularga qarata aytadiki:

Hoji Zuhur ham o'rdada,

Sarhavzlar, oliy sada,

Borsa agar bir g'amzada

Jonig'acha ezor ekan.

“Sayohatnoma”dan.

Shoir yashagan muhitning ijtimoiy illatlaridan yana biri kiborlar olamining mol-dunyoga mukkasidan ketib, bu yo'lda har qanday qabihlikdan qaytmasliklari edi. Boy va a'yonlarning xudbin va badnafsliliklaridan ozorlangan shoir achchiq zaharxanda bilan shunday deydi:

Mingboshi Eshdavlat akam,

Ammo quruq savlat akam,

Qilsa chiqim gar bir diram

Uyqu qochib, bedor ekan.

Shoirning bunday tabaqalar ustidan satirik tahlili va xulosalari bu bilan tugamaydi. Xalqimizda “Boy kiysa muborak bo'lsin, kambag'al kiysa qaerdan olding?” degan achchiq zaharxandali matali bor. Muqimiy ana shu folklor manbaidan unumli foydalanib, ayrim badavlat kishilarning baxilligi hamda hasadgo'yliklarini ham achchiq kulgiga ro'para qiladi:

“Oq er”din o'tdim, boylari –

Oliy imorat joylari,

Mehmonsiz o'tkay oylari,

Kelsa birov nochor ekan.

Yoki quyidagi misralardagi satirik xulosalarga e'tibor beraylik:

Boyvachchasidur badburush,

To'g'ri so'zi achchig'-turush,

Sil, eski bachch, choyfurush,

Hofiz Umar, Qahhor ekan.

Muqimiy yashagan davrning eng katta illatlaridan yana biri mehnatkash ommaning o'z mehnati samarasidan bahra ololmasligi, “o'roqda yo'q, mashoqda yo'q, xirmonda hozir”larning tekinxo'rlikdan uyalmasliklari edi. Xususan, Oltiariq mingboshisining hiylagar va dog'uli ekanligi, ehtiyotkorlikda bir cho'qib ikki alanglovchi qarg'aga o'xshashi o'zining o'tkir ifodasini topgan:

Mingboshisi so'finamo,

Tasbihi bo'ynida rido.

Cho'qib qochar zog'i alo,

Bir dog'uli ayyor ekan.

Bu ham yetmaganidek, himoyasiz xalqni rohzan – o'g'ri va qaroqchilar yo'llarda talashi, uylarini tunab ketishi ham shoir yashagan davr va muhit uchun odatiy hol edi:

Kun tobishida bu safar,

Yo'llar saqardin ham batar.

Tog' ichra rahzan bachchag'ar

Ko'p elni qaqshatg'on ekan.

O'zi mansub bo'lgan jamiyatdagi adolatsizlik, amir-amaldorlarning noinsofligi, boy-badavlat kishilarning kibr-havosi va xudbinligi, ayrim din va shariat peshvolarining munofiqligi va riyokorligi, oxir-oqibat shoir tomonidan quyidagicha hukm va xulosa chiqarilishiga olib keldi:

Mingboshilik kimning ishi,

Desam, dedi bedonishi,

Bir “qo'shtegirmonlik” kishi,

Xo'ja Iso badkor ekan.

Hayot voqealiklarini muntazam kuzatib borgan Mukimiy xalq boshiga tushayotgan azob-uqubatlarga befarq bo'la olmas edi. Shuning uchun ham kundalik hayotda ro'y berayotgan hodisalarga munosabatini bildirar ekan, uning ijodida mavzular ko'lami tobora kengayib bordi. Shoir yaratgan asarlarda

jamiyatdagi illatlarni fosh qilish bora-bora muayyan va aniq shaxslar timsolida amalga oshirila boshlandi. Chunki shoir el-yurtga kulfat keltirayotgan, odamlar nafratiga duchor bo'layotgan kimsalarga qarshi adabiyotni, satirani qurol qilib oldi. Avvalgi fasllarda ham aytilganidek, Navoiy boshlab bergan "falon" turkumidagi an'analar xuddi Maxmur ijodida bo'lganidek, Muqimiy she'rlarida ham izchil o'rin ola boshladi. Ochiq tanqid, o'tkir hajv shoir hayotiga xatar keltirishi mumkinligi uning ana shunday nisbatan pardali usullardan foydalanishga majbur qilar edi. Ammo shoirning zamondoshlari, hatto hajv qahramonining o'zi ham "falon" atamasining ostida kim turganligini yaxshi bilganlari tabiiy. Bunday she'rlar qudratli satirik kuchga, yuksak badiiyatga egaligi bilan ham diqqatga sazovordir.

Muqimiy ijodida ijtimoiy ruh tobora kuchayib boradi. U endi xalq ro'shnoligini, osoyishta hayotini, tinch mehnatini ta'minlash borasida zamonasi va uning amaldorlaridan, davrning mavjud tuzumidan umidini uzadi. Uning satirasida "faloni" shaklidagi ishorali satiralar, adresli hajvlar o'rnini xalq boshiga kulfat keltirayotgan o'z davri tuzumidan norozilik tuyg'ulari egallay boshlaydi. Masalan, Zavqiyning saylov haqida yozgan ta'rix she'riga muxammasida Muqimiy quyidagi keskin xulosaga keladi:

***Zindalik gulxanida har kimsa,
Kuydilar o'tganida har kimsa,
Ming jarohat tanida har kimsa,
Bu qazo gulshanida har kimsa
Gul kabi ochildi-yu, so'ldi deng.***

Yuqorida aytganimizdek, bu she'rda ilgari o'tgan ilg'or qarashli shoirlar ijodida bo'lganidek, xalqning nochor turmushidan norozilik tuyg'ulari ifodalangan, lekin farq shundaki, Muqimiyning lirik qahramoni xalq ichida turib, xalq nomidan gapiradi. Bir necha zolim va nodonlar xalq tepasiga chiqib olib xalqni oyoq osti qilayotganini aytib, nahotki bu baloyu kulfatlardan qutulishning chorasi bo'lmasa deya fig'on chekadi.

E'tibor berilsa, shoir "taqdir" so'ziga ham alohida kinoya yuklaydi. Chorasiz xalqning dardu kulfatlarni taqdirdan deya ko'nikishiga qo'shilolmaydi. She'r tuzilishi, tili, vaznining soddaligi, hayotga realistik munosabat darhol seziladi.

Muqimiy ijodida hayotdagi illatlarni fosh qilish borgan sari keskin tus ola boradi. Bu noinsof amaldorlar, ayrim riyokor ruhoniylar va boy-boyonlarning xatti-harakatlarini juda dadillik bilan qoralashda ko'rinadi. "Tanobchilar" degan satirik she'rida mahalliy amaldor tilidan aytilgan quyidagi dag'dag'alardan buni yaqqol ko'rish mumkin:

***... Menki tanobingg'a chiqibman kelib,
Xizmatimi yaxshi qilinglar bilib.***

***O't qo'yubon kuyduradurg'on o'zim,
Hokimingu o'lduradurg'on o'zim.***

Muqimiy ijodida hayot, jabr-zulmni fosh qilish borgan sari ko'payadi, hayotga yaqinlik tobora kuchayadi, ifoda keskinligi ortadi. Xalqona ifoda esa uning ta'sirchanligini, esda qolishini ta'minlaydi. Masalan, "Ajab xalq ekanmiz" deb boshlanuvchi satirik she'rida Ashurboy degan boy-badavlat hojining qilmish-kirdikorlari ochib tashlanadi. Muttaham va munofiq, buning ustiga axloqan buzuc bo'lgan bu kimsa kambag'al bir kishining qizi yoniga tunda bostirib kiradi. Uy egasi bilib qolib, dod-faryod ko'targanida tomma-tom qochayotib qo'lga tushadi. Ammo uni so'roq qilinayotganda "Men er-xotin urushayotganini eshitib, yarashtirgani kirgan edim. Bular mendan pul olish uchun tuhmat qilishayapti" deb aytadi. Boyning gapi ma'qullanib, aksincha jabrdiydalarning nomi qora bo'lib qoladi. Ana shu hayotiy voqedan ta'sirlangan shoir afsus va nadomat bilan shunday deydi:

***Haqorat qilingan kishilar qolib,
Topib boy so'zi bunda zo'r e'tibor.***

***Qachon kambag'allarning so'zi o'tar,
Agar bo'lsa aqchang, so'zing zulfiqor.***

Keltirilgan misollar shoir yashagan davr hokim sinf vakillari bo'lgan amaldorlar, o'z manfaatiga o'ylab, zolimlarga zulm pichog'ini qayrab bergan ba'zi ruhoniylarni sharmanda qiluvchi o'tkir satira namunalaridir. Muqimiy asarlarining shakli ham ifodalanayotgan mazmunga mos bo'lib, xalq termalariga, masallariga hamohang uslubga egadir.

Muqimiy shu tariqa Qo'qon adabiy muhitida satira an'analarini muvaffaqiyatli davom ettirgan, hajviyot imkoniyatlarini kengaytirgan, yangi usullar kashf etgan shoir sifatida o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida Gulxaniy, Maxmur, Turdi Farog'iy, Zavqiylar qatorida turadi.

2-fasl. Ijtimoiy tiplarning satirik talqinlari.

XIX asr Qo'qon adabiy muhitida ijtimoiy tiplar hamda voqelikdagi hodisalarni satirik yo'nalishda tasvirlashda yangi bosqich hisoblanadi. Oldingi fasllarda aytilganidek, hajvchilik adabiyot tarixida turli bosqichlarni bosib o'tib, XX asr boshlariga kelganda yangicha qiyofa hamda ko'rinish kasb eta boshladi. Lirik janrlarda ijtimoiy tiplarning qiyofasini o'zida gavdalantiruvchi salbiy obrazlar shakllana boshladi. Bunday tipdagi satirik asarlarni yangi pog'onaga ko'targan Muqimiy, uning izdoshi bo'lgan Zavqiy va boshqalar adabiyotning ijtimoiy salmog'i, ommabopligi hamda ta'sirchanligini yanada oshirdilar.

Mavloni Muqimiy o'z davrining taniqli hajvchi ijodkori bo'lib yetishdi. Oddiy xalq orasidan chiqqan, o'tkir zehni, hozirjavob hamda o'z davri ijtimoiy muhitiga nisbatan befarq bo'lmagan bu zot Qo'qon adabiy muhitining satira yo'nalishida o'ziga xos iz qoldirdi. Shoir o'z davrining turli tabaqalari orasida bo'lgan va ular haqidagi qarashlarini aks ettiruvchi ko'plab asarlar yaratgan.

Muqimiy o'z taqdiridoshi bo'lgan xalqning nochor hayotini achinish bilan qalamga oladi, zolim amaldorlarning kirdikorlaridan nafratlanadi, riyokor peshvolar, qozi-yu mansabdorlar ustidan achchiq kuladi.

Muqimiy 1850 yilda Qo'qonda tug'ilgan. Otasi oddiy hunarmand – novvoy bo'lsa-da, zamonasining o'qimishli kishilaridan bo'lgan. Muqimiy dastlabki saboqni o'z davri maktablarida oladi. Buxoro madrasalaridan birida tahsil ko'radi. Mustaqil ravishda arab, fors tillarini o'rgandi. Xattotlik hunarini ham puxta o'zlashtirdi. Madrasani tamomlashga muvaffaq bo'lsa-da, biror rasmiy lavozimga ishga kira olmaydi, natijada butun umri, qobiliyat va iste'dodini hunar hamda ijodga bag'ishlaydi. Mumtoz lirikaning g'azal, masnaviy, musaddas, mustazod, murabba, ruboiy hamda chiston janrlarida samarali qalam tebratdi. Undan bizgacha turli bayozlardagi she'rlari yetib kelgan.

Muqimiy, yuqorida aytilganidek, satira yo'nalishida samarali ijod qilgan. Uning “Avliyo”, “Bachchag'ar”, “To'y”, “Maskovchi boy ta'rifida” kabi asarlari

g'oyatda diqqatga loyiqdir. Shoir bu hajvlarning deyarli barchasida real hayotda o'zi tirik shohidi bo'lgan hodisalarning mushtarak va xarakterli tomonlarini haqqoniy ifodalashga intildi.

Boshlarida shapka gohe, goh dastor avliyo,

Qo'llarida subhayu, bo'ynida zunnor avliyo...

“Avliyo” she’ridan.

Ko'rmadim olamda sandek turfa nodon bachchag'ar,

Suratingni ko'rgan odam derki, shayton bachchag'ar...

“Bachchag'ar” she’ridan.

Osh esalar o'rtada sarson ilik,

Xo'ja – chiroq yog'i, Hakimjon – pilik...

“Tanobchilar” hajvidan.

Shoirning hajvlaridan keltirilgan bu misralar katta umumlashtirma qudratga egadir. Bunday ixcham, lekin chuqur mazmunli misralar odam qiyofasidagi maxluqlarning jirkanch va razil obrazlarini ko'z oldimizda yaqqol gavdalantiradi.

Muqimiy hajvlari uchun xarakterli bo'lgan muhim xususiyat shundaki, shoir xoh katta hajmli hajviy manzumalarida, xoh kichik satirik she'rlarida bo'lsin mavzuning dolzarbligiga, hodisaning ishonarli bo'lishiga erisha oladi. Ayni paytda qalamga olingan hodisalarni real voqelikdagi mushtarak jihatlarini qamrab olishga intiladi. Hajv ostiga olingan ijtimoiy tip hamda kimsalarning tipik tomonlarini aniq hayotiy faktlar asosida badiiy umumlashma darajasiga ko'tara oladi.

Shoirning “ Darig'o, dini islom hokimi ahli kuffor o'lmish ” deb boshlangan muxammasi yuqorida sanab o'tilgan jihatlarining yaqqol namunasi bo'la oladi. Ushbu satirik she'rda Muqimiy ikki tomonlama zulm – bir tomondan chor Rossiyasi hukumati, ikkinchi tarafdan mahalliy amaldorlar zo'ravonligi sharoitida adolat o'rnini nohaqlik, istibdod, ochlik va qashshoqlik, noodil qonunlar egallaganligini, qisqasi, jamiyat hayotining real manzaralarini mohirlik bilan chizadi:

Hazor afsuskim, ilm ahlida bir zarra izzat yo'q,

G'aniylarda saxovatdin asar, xayr ila himmat yo'q.

*Xiradmand, ahli donishlarda ham qadr ila qimmat yo'q,
Gado xayliga mardumlarda ehsonu muruvvat yo'q,
Baxil go'ri kabi el ko'ngli ham toriku tor o'lmish.*

*Sayyidu xojaning egnidakim yangi choponi yo'q,
Alardin o'zga el nazdida odamning yamoni yo'q,
Kaholatdinki aksar xalqning rangida qoni yo'q,
Bisotin axtarib kelsang agar, bir kaf samoni yo'q,
Ajabkim, ko'chalarda kiymishi atlas tavor o'lmish...*

Muqimiyning shunga o'xshash o'tkir hajvlari xalq o'rtasida juda tez tarqaladi. Albatta, o'zlarini fosh qilayotgan shoirga nisbatan mahalliy amaldorlar, ayrim mutaassib ruhoniylar befarq bo'la olmas edilar.

Mumtoz adabiyot tarixida ko'p asrlardan buyon umumlashma obrazga aylangan munofiq zohid, riyokor shayx singari ruhoniy tabaqalar Muqimiy ijodida real shaxslarga, aniq personajlarga aylana borganligini ko'rish mumkin. Adolatsiz hukmdorlarning qilmishlarini “shar'an” oqlovchi, bosqinchi chor hukumatining mafkuraviy tayanchi bo'lgan, zolimlarga zulm qilichini qayrab beruvchi ayrim eshon, mullo va shayxlarning satirik obrazlari shoir ijodidan keng o'rin oladi.

Masalan, Muqimiy “Avliyo” radifli hajviy she'rida atrofiga murid to'plab, o'zini suratan pok vijdonli, “yo'ldan adashganlarning rahnamosi” qilib ko'rsatishga uringan eshonlarni fosh qilishga harakat qiladi:

*Domig'a tushmagan kam turfa tuzoqchi Hojim,
Bermaydi qilsa nasya sudrab, chatoqchi Hojim,
Yengil hazilni bilmas, nozu firoqchi Hojim,
Ko'rganda so'fi kunduz, oqshom qaroqchi Hojim,
Minganda o'zin olgay eshshak, uloqchi Hojim.*

Muqimiy “Bachchag’ar” radifli boshqa bir hajviy she’rida ham ayrim munofiq din peshvolarining reaksiya faoliyatlarini fosh etib, riyokor ruhoniylar obrazini yanada rivojlantiradi. Bu bilan ana shunday salbiy personajlarni satirik tip darajasiga ko’taradi. Shoir ba’zi mullolarning johil, nodon, manfaatparast, xudbin, fisq-fujurning koni, hayotdagi yangiliklar, ilm-ma’rifatning ashaddiy dushmani ekanliklarini zo’r jur’at, jasorat va rostgo’ylik bilan badiiy ifodalaydi:

Botini cho’yan qozon, qaynar ichida revu rang,

Zohiri bir so’fi surat, qo’lda aso bachchag’ar.

Yotquzub tilsang banogoh qornidin chiqmas alif,

Sallasin ko’rgan kishi der: “Katta mullo bachchag’ar”.

Ko’rinadiki, shoirning nafratiga duchor bo’lgan asosiy narsa ayrim mullalarning munofiqligi va riyokorligidir. Yuqorida aytganimizdek, shoir ularni satirik ijtimoiy tip, salbiy qahramon, yorqin obrazga aylantirishda turli usullardan, xalqona vositalardan, badiiy elementlardan ustalik bilan foydalanadi. Mullolarning “o’z holidan bexabar” boshqalarga pand-nasihat qilishlarining o’zi satirik kulgiga sabab bo’ladi. Tashqi qiyofasi, “savlati ot hurkadigan” mullalar aslida alif lomdan ham bexabar savodsizlar bo’lib chiqadilar. “Haq uchun qilingan toat – imondir, xalq uchun, ya’ni xo’jako’rsinga qilingan toat riyodir” deyiladi diniy-falsafiy manbalarda. Ma’lum bo’ladiki, Muqimiy hajviga qahramon bo’lgan mullalar “el ko’zi-chun” toat qiladilar. Aslida ma’nan buzuvchi kimsalar o’z qavmlariga poklik hamda diyonatdan va’z aytishlari esa haqli ravishda, o’quvchining nafratini qo’zg’atadi. Shoir bu she’rida riyokor va munofiq ruhoniylarni shiddatli tanqid qilish bilan birga, ana shunday satirik ijtimoiy tiplar tomonidan mehnatkash insonlarning qadr-qimmatini tahqirlanishiga qarshi keskin norozilik bildiradi. Insoniy sharaf va nomusni ulug’laydi. Shu ma’noda she’r muallifi o’z-o’ziga murojaat qilib:

...Qilmas erdim hajv, nochor ayladimkim o’qishib,

Ahli donishg’a bo’lur deb daf’i savdo bachchag’ar.

...Ey Muqimiy, sendin ozore biravga yetmasin,

Dushmaning ham bo'lsa hargiz dema aslo bachchag'ar.

deydiki, bu misralar Muqimiy ijodini otashin insonparvarlik va chuqur ma'rifatparvarlik ruhi bilan sug'orilganidan dalolat beradi. Kishini haqiqiy insonlikka, odamiy shon-sharafning qadriga yetishga, jaholat va ko'r-ko'rona ruhiy bandalikka qarshi keskin ngorozilik bildirishga da'vat etishining o'zi ham o'z zamonasi uchun katta taraqqiyparvarlik ahamiyatiga ega bo'lib, shoirning olijanob insoniy fazilatlar kuychisi ekanligidan darakdir.

Muqimiy ijodidagi realistik tendensiya va intilishlar, uning boshqa hajviy asarlarida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Shoirning o'z zamondoshi bo'lmish boy-savdogar Hodixo'ja eshon haqida yozgan katta hajviy manzumasi uning satirik merosida salmoqli o'rin egallaydi. Bu hajviy manzuma, avvalo, o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida Maxmur, Turdi Farog'iylar ijodidan boshlangan adresli hajvning Qo'qon adabiy muhitidagi yaqqol ko'rinishlaridan biridir. SHuningdek, mazkur satira aniq bir tarixiy shaxs haqida yozilgan bo'lsa-da, lekin shoir unda yagona shaxsning turmush yo'sini va xulq-atvoriga tegishli bo'lgan xususiyatlarning oddiy tasvirini emas, balki shunday insonlar guruhining xatti-harakati, hayotiy faoliyatlari, ichki va tashqi qiyofasiga xos salbiy sifatlarni tanlab, ularni Hodixo'ja shaxsiyatida jamlab, uni tarixiy va satirik shaxsning badiiy portreti darajasiga ko'tarishga muvaffaq bo'lgan. Haqiqatan, Hodixo'ja eshon haqidagi hajviy manzumani o'qir ekanmiz, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida tarix sahnasiga chiqqan boshlagan maskovchi boy, Hodi eshonlar timsolida namoyon bo'lgan o'zbek milliy burjuaziyasining tipik vakillaridan biri ko'z oldimizda gavdalanadi. Hodixo'ja eshon o'z manfaati yo'lida imonini yutgan kishilar timsolidir. Pul va mol to'plash yo'lida har qanday kasb va yumushdan qaytmaydi. Savdogarlikdan tortib, muttahamlikkacha bo'lgan hunarlar sohibi bo'lgan bu kimsa o'z manfaati yo'lida xilma-xil nayranglar ishlatadi, hiylalar ijod qiladi, o'zini turli ko'yga soladi, buqalamundek istalgan rang va tusga kira oladi:

*...Vale rastada savlatin ko'rsangiz
Kim arziydi shayxi zamon bilsangiz.*

*Ot ustida mardum qilurlar gumon,
Muddarislari "Beg"ni, deb Tosh eshon.*

*Amoma boshida, safid jomalar,
Xayol aylagaysizki allomalar...*

Keltirilgan misralarda Hodixo'janing tashqi ko'rinishi, xatti-harakatlari tasvirlanib, o'quvchi ko'z oldida avvalo uning tashqi qiyofasi gavdalantiriladi. Uning turli kasb-hunarlar bilan o'ralashib yurishi, istagan qiyofaga kira olishi xarakteridagi yetakchi xususiyatlarni namoyon etadi. Chunki uning turli yumushlarga vaziyatga qarab qo'l urishi ostida manfaatparastlik yotadi. U kerak bo'lsa, o'zini telbalikka solishdan ham qaytmaydi. Ana endi biz ham uni shoirga qo'shilib, ablah va makkor deya e'tirof eta olamiz. Uning olib-sotarlikdagi ustasi farangligi va nayrangbozligi endi bizni hayron qoldirmaydi.

Katta hajviy manzumadan terib olingan bu misralardan ayonki, shoirning asosiy g'oyaviy muddaosi – mumsik, xasis, qallob, o'larmon, sulloh, firibgar boy sadogarlarning razil va jirkanch obrazlarini yaratishga qaratilgan. Aytish mumkinki, shoir bu hajvi orqali o'z zamonasining makkor va firibgar savdo ahllarini bir obrazda mujassamlashtira olgan hamda tipik satirik qahramon yarata olgan.

Yuqorida tahlilga tortilgan misollardan ko'rinadiki, Muqimiy o'zining barakali va sermazmun ijodi bilan Navoiy, Bobur, Mashrab, Munis, Turdi Farog'iy, Maxmur kabi mumtoz adabiyotimiz namoyandalaridan ko'p narsa o'rgandi. Ular boshlab bergan an'analarni yanada rivojlantirdi, boyitdi. Insoniylik, adolat, xalqparvarlik g'oyalarini izchillik bilan tashviq qilish Muqimiy ijodi uchun ham xos bo'ldi. Shoir Qo'qon adabiy muhiti adabiy merosini original yangi asarlar bilan to'ldirdi. Do'sti, maslakdoshi shoir Zavqiy bilan yelkama-yelka turib, chuqur

demokratizm va ma'rifatparvarlik g'oyalarini olg'a surdi, zamona nosozliklarini, hukmron tabaqalarning insofsizliklarini ayamay fosh etdi. Kamsitish va tahqirlashlar shoir irodasini buka olmadi. U hech qachon haq so'zni aytishdan qaytmadi.

X U L O S A

Xalqimiz tarixida g'oyat murakkab bo'lgan davrda yashab, ijod qilgan, zamona noqisliklari, ikki tomonlama zulm masalalarini lirik asarlarida xolis kuylagan, yorug' kunlar umidi va ezgu niyatlar bilan yashagan shoira Muqimiy ijodini mustaqillik mafkurasi asosida ilmiy tekshirish muhim ahamiyatga egadir. Shuning uchun ham shoirning badiiy ifoda usullari, lirik bayon tarzining xilma-xilligi, satirik va yumor she'rlarining mavzular doirasi kengligi, g'oyalar hayotiyliigi singari masalalar, uning o'ziga xos uslubi tadqiqotchilar diqqatini tortib kelmoqda.

Mazkur izlanishlarimizda, shuning uchun ham so'z san'atkori ijodiy faoliyatini an'analar fonida o'rganish, davr xususiyatlarini hisobga olish, muallif dunyoqarashini belgilab olish asosiy me'yor bo'lib xizmat qildi. Voqelikka munosabat va hayotiylik masalalarini tahlil etish shoir ijodidagi o'ziga xoslik xususiyatlarini tekshirishda yetakchi omil bo'ldi.

Muqimiyning satirik asarlari, jumladan, "Sayohatnoma" si uchun jamiyat va tabiat markazida turgan insonning rang-barang ruhiy holatlarini, tashqi ko'rinishlarini, xatti-harakatlarini, fe'l-atvorini yangicha ohanglarda badiiy tasvirlash xarakterlidir. Shuningdek, o'zidan avval yashab o'tgan mumtoz adabiyot namoyandalaridan keskin tafovutlanib turuvchi xususiyati shundaki, shoir ijodida ijtimoiy-siyosiy hayotdagi voqea-hodisalar keng tasvirlandi, ilm-fan yutuqlarining hayotga tatbiq etilishini orzu qilish, erkin va ozod hayotga talpinish tuyg'ulari yorqin ifodasini topdi. Shoir o'tmishdagi ulug' ustozlari izidan borib, insonni sharaflanishga loyiq zot deb biladi, uning mo''jizaviy aql-idroki, yuksak his-tuyg'ulari va hamisha baland didiga tahsinlar o'qiydi.

Ammo muayyan davrga mansub badiiy adabiyot namunalari o'sha davr jamiyatining ma'naviyati, adabiy-estetik didi, kishilarning dunyoqarashlari, orzu-umidlarini ham belgilaydi. Bu esa so'z san'atkoridan o'zi mansub bo'lgan ana shu davr didi va talabiga yarasha ijod qilishini taqozo etadi. Shuning uchun ham Muqimiy ijodida satiraning o'rni, u murojaat qilgan lirik janrlar tabiati, qalamga

olgan mavzulari, g'oyalari hamda falsafiy umumlashmalarini tahlil etishda yuqoridagi omillarni ham inobatga olmoq zarur.

Muqimiy nisbatan murakkab va ziddiyatli davrda yashab, ijod qildi. U hayoti nochor va turmushi g'arib bo'lishiga qaramasdan badiiy ijod bilan muttasil va muntazam shug'ullanishga vaqt topa oldi. Peshqadam dunyoqarashi va ilg'or mavqeidan kelib chiqib, jamiyatda ro'y berayotgan voqea-hodisalar guvohigina emas, bevosita ishtirokchisi bo'lishga ham majbur edi. Bu esa uning adabiy mahsulida ijtimoiy voqelikdagi hodisalarni lirik va satirik bayon etishnigina emas, ulardan falsafiy-axloqiy xulosalar chiqarishni ham taqozo etardi. SHoir ijodida ham dunyoviy, ham ruhoniylar motivlarining parallel uchrashi, voqea-hodisalarga ham ziyoli tabaqa vakili, ham oddiy inson, ham ijodkor sifatida munosabat bildirishi sababi ham shunda.

Shoir, bir tomondan, Navoiy, Bobur, Ogahiy singari ulug' salaflarining munosib izdoshi bo'lishga intildi. Ikkinchi tomondan, tasavvuf shayxlarining g'oyibona muridi va shogirdi sifatida so'fiylik g'oyalarini o'zida aks ettiruvchi asarlar ham yaratdi. Shuningdek, o'z davrining vijdoni, xalq orzu-umidlarining sadosi vazifasini bajarib, badiiy adabiyotning eng ta'sirchan usullari bo'lgan satira va yumorga keng murojaat qildi. Bir necha yo'nalishning bitta so'z san'atkori timsolida namoyon bo'lishi ham adabiyotimiz tarixida kamyob hodisa. SHunga qaramasdan, Muqimiy ham hassos shoir, ham yetuk inson sifatida adabiyotning nodir namunalari yaratishga muvaffaq bo'ldi.

Muqimiy hayoti va ijodi xususidagi tadqiqotlar Istiqlol sharofati bilan xolislik asosida jonlana boshladi. Xususan, 2010 yilda atoqli shoir yubileyi mamlakatimizda keng nishonlanib, yangi topilgan asarlari bilan boyitilgan asarlar to'plami nashr etildi. Shoir hayoti va ijodiga bag'ishlangan ilmiy-nazariy maqolalar majmuasi e'lon qilindi. Muqimiy ijodi, boshqa mumtoz adabiyotimiz va san'atimizning yetuk namoyandalari qatorida yangi davr talabi hamda Istiqlol mafkurasi asosida o'rganila boshlandi. Biz bugungi sharoitda xalqimizning ushbu ulug'vor siymosi hayoti va adabiy faoliyati bo'yicha ko'plab fundamental tadqiqotlar yaratilishiga ishonamiz. Chunki mustaqillikka erishganimizdan so'ng

qisqa fursat ichida keng kitobxonlar ommasi shoirning adabiy merosi, uning xalqimiz ijtimoiy-siyosiy tarixida tutgan o'rne haqida xolis va mukammal tasavvurga ega bo'la boshladi.

Muqimiy ijodida kuchli namoyon bo'ladigan hasbi hollik, ya'ni tarjimai holga oid, shaxsiy hayot bilan bog'liq holatlarning badiiy ifodasining o'ziyiq uning murakkab va ziddiyatli taqdiri, umr yo'li, dunyoqarashi, qolaversa, badiiy ijodga nisbatan pozitsiyasini oydinlashtirishga yaqindan yordam beradi.

Biz mazkur bitiruv-malakaviy ishimizda Muqimiy adabiy merosining, xususan, "Sayohatnoma"sining janr xususiyatlari, ijtimoiy-siyosiy hayot bilan bog'liq mavzular ko'lami, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, an'analarga munosabati, poetik mahorati masalalarini yoritishga intilar ekanmiz, ko'proq uning o'ziga – ya'ni u qoldirgan, bizga ma'lum bo'lgan va yaqin kunlarda nashr etilgan adabiy merosiga tayandik.

Sodda, ammo otashin misralarda xalqonalik, tafakkur, yorug' kelajakka qat'iy ishonch uyg'unlashuvi bir tomondan uning yuksak iste'dodidan darak bersa, ikkinchi tomondan, o'zi mansub bo'lgan jamiyat noqisliklaridan ozurda zotning nolalarini ham his etamiz. Shundan kelib chiqib, biz mazkur izlanishlarimizda shoir adabiy merosining o'ziga xos jihatlarini an'anaviylik fonida oydinlashtirishga harakat qildik. Ammo, shunisi ham borki, lirik turning har bir janri voqelikni ifodalashda o'z imkoniyati, ifoda yo'sini, shakliy belgilari va xarakteriga ko'ra bir-biridan sezilarli farq qiladi. Shuni nazarda tutib, mazkur ishimizda Muqimiy lirik merosining asosini tashkil etuvchi g'azal, murabba', mustahzod, muxammas singari janrlarga ko'proq e'tiborni qaratdik. Shoir nomini el o'rtasida keng yoygan, uni Lutfiy, Navoiy, Amiriy, Maxmur singari siymolar an'alarining muvaffaqiyatli davomchisi sifatida tanitgan boshqa adabiy merosi namunalariga o'ni-o'ni bilan murojaat qildik.

Aytmoqchimizki, Mavlono Muqimiy nomi bilan ko'p vaqtlardan buyon xalq tomonidan e'zozlab o'qilgan, ijodiy merosini xolis o'rganish va ilmiy tekshirish ishlari nisbatan kech boshlangan ushbu siymoning adabiy merosi, xalqimiz ijtimoiy taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissasi o'zining munosib bahosini olmog'i kerak. Umid qilamizki, bu boradagi tadqiqotlar bundan keyin ham izchil va muttasil davom etadi.


FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat. 2007.
2. Abdurasulov M. O'zbek ma'rifatparvar shoirlari ilm-ma'rifat haqida. T.: "O'qituvchi". 1972.
3. Abdug'afurov A. Erk va ezgulik kuychilari. T.: 1979.
4. Valixo'jaev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. T.: "O'zbekiston. 1993
5. Jalolov A. O'zbek ma'rifatparvar-demokratik adabiyoti. T.: 1978
6. Jo'raev H. Lirikada an'anaviylik va o'ziga xoslik. T.: 2004.
7. Zavqiy ijodi. (Majmua). "Farg'ona" nashriyoti. 2008.
8. Karomatov H. Qur'on va o'zbek adabiyoti. T.: "Fan" 1993.
9. Karimov G'. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent. 1976.
10. Komilov N. Tasavvuf. (1-kitob). T.: 1996.
11. Muqimiy. Bog' aro. T.: Akademya nashr. 2010.
12. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. T.: "O'qituvchi". 1980.
13. Toshkanov S. O'zbek adabiyotida satirik xarakter problemi. T.: 1987
14. Tojiboev R. Furqat abadiyati. "Farg'ona" nashriyoti. 2010.
15. Sharq mumtoz poetikasi. (H. Boltaboev talqinida). T.: 2008
16. Qodirova M. O'zbek shoirlari ijodida ozodlik motivlari. T.: 1977
17. Qodirov V. Mumtoz adabiyot: O'qitish muammolari va yechimlar. T.: 2009
18. Qayyumiy P. Xo'qand tarixi va uning adabiyoti. T.: Tamaddun. 2011.
19. Hayitmetov A. Tabarruk izlar izidan. T.: 1976.
20. Haqqul I. Abadiyat farzandlari. T.: 1990.
21. O'zbek klassik she'riyati janrlari. T.: "O'qituvchi". 1979.


MUNDARIJA

Kirish.....	3
1 BOB. Ijtimoiy –siyosiy hayotning badiiy tasviri	
1-fasl. Qo’qon adabiy muhitida satiraning o’rni.....	10
2-fasl. “Sayohatnoma”ning janr xususiyatlari va obrazlari.....	17
II BOB. Voqelik va muallif munosabati	
1-fasl. Ijtimoiy tiplarning satirik talqinlari.....	27
2-fasl. An’ana va poetik mahorat masalasi.....	34
Xulosa	41
Foydalanilgan adabiyotlar.....	45
<i>Ilovalar.....</i>	<i>47</i>

1-ilova. “Sayohatnoma”ning asosiy tasvir yo’nalishlari



2-ilova. **“Sayohatnoma” yaratilgan asosiy manzillar**



3-ilova. Asardagi tasvirlarning xarakter xususiyatlari

